

SHAYBONIYLAR DAVLATI TASHQI SIYOSATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18810920>

Kamoliddinova Durdona

*Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy
Fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi*

Mazkur maqola XVI asrda Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan Shayboniylar davlatining tashqi siyosiy yo'nalishlarini ayrim jihatlarini o'rganish hamda targ'ib qilishga bag'ishlangan. Unda sulolaning asosiy geosiyosiy raqiblari (ayniqsa Safaviylar Eroni) bilan munosabatlari, strategik ittifoqchilari (Usmonli imperiyasi, Qozoq xonligi) bilan aloqalari, hamda uzoq mintaqalar (Xitoy, Rossiya) bilan olib borilgan diplomatik va savdo-iqtisodiy hamkorlik masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar

Shayboniylar, Safaviylar, Usmonli imperiyasi, Xuroson, diplomatik aloqalar, tashqi siyosat, Abdullaxon II, Muhammad Shayboniyxon, Markaziy Osiyo, XVI asr.

Аннотация

Данная статья посвящена комплексному анализу внешнеполитических направлений государства Шейбанидов, правившего в Средней Азии в XVI веке. В ней освещаются отношения династии с основными геополитическими соперниками (особенно с Сефевидским Ираном), стратегическими союзниками (Османская империя, Казахское ханство), а также дипломатические и торгово-экономические связи, установленные с отдаленными регионами (Китай, Россия).

Ключевые слова

Шейбаниды, Сефевиды, Османская империя, Хорасан, дипломатические отношения, внешняя политика, Абдуллахан II, Мухаммад Шейбани-хан, Средняя Азия, XVI век.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the foreign policy directions of the Shaybanid state, which ruled in Central Asia during the 16th century. It covers the relations of the dynasty with its main geopolitical rivals (especially Safavid Iran), its strategic alliances (with the Ottoman Empire, the Kazakh Khanate), as well as the diplomatic and trade-economic cooperation carried out with distant regions (China, Russia). The article analyzes the factors that influenced

the formation of foreign policy — religious conflicts, territorial interests, and economic necessities — in their interconnectedness.

Keywords

Shaybanids, Safavids, Ottoman Empire, Khorasan, diplomatic relations, foreign policy, Abdullah Khan II, Muhammad Shaybani Khan, Central Asia, 16th century.

XVI asr boshlarida Markaziy Osiyo siyosiy xaritasida tub o'zgarishlar yuz berdi. Temuriylar saltanatining zaiflashuvi va o'zaro nizolar fonida dashti qipchoq ko'chmanchi o'zbek urug'lari yetakchisi Muhammad Shayboniyxon tomonidan yangi davlatga asos solindi. 1500-yilda Samarqandni egallash bilan boshlangan jarayon 1507-yilga kelib butun Movarounnahr va Xuroson hududlarida Shayboniylar hokimiyatining o'rnatilishi bilan yakunlandi. Bu holat nafaqat mintaqaning ichki siyosiy tuzilishini, balki butun Yaqin va O'rta Sharqdagi geosiyosiy muvozanatni ham o'zgartirib yubordi[3.11-12].

Shayboniylar davlati tashqi siyosatining shakllanishida bir qancha muhim omillar hal qiluvchi rol o'ynadi. Birinchidan, yangi sulola o'z hokimiyatining qonuniyligini isbotlashi va Temuriylar merosiga da'vogarlik qilishi kerak edi. Bu esa tabiiy ravishda g'arbiy qo'shnilar — Eron va Xuroson hududlari bilan to'qnashuvga olib keldi. Ikkinchidan, diniy omil muhim ahamiyat kasb etdi. Shayboniylar sunniy islomning sodiq tarafdorlari sifatida shia mazhabini davlat dini darajasiga ko'targan Safaviylar Eroniga nafaqat siyosiy, balki mafkuraviy dushman sifatida qaradilar. Bu diniy ziddiyat ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni dushmanlik darajasiga olib chiqdi va butun asr davomida davom etgan urushlarga asos bo'ldi.

Uchinchidan, iqtisodiy manfaatlar tashqi siyosatning muhim yo'nalishini belgiladi. Shayboniylar hududidan o'tuvchi Buyuk Ipak yo'li savdo aloqalarining xavfsizligini ta'minlash va undan maksimal daromad olish davlat farovonligining asosiy shartlaridan edi. Bu esa sharqda Xitoy (Min imperiyasi) va shimolda Rossiya kabi yirik savdo hamkorlari bilan doimiy va barqaror diplomatik aloqalar o'rnatishni taqozo etdi.

Tarixshunoslikda Shayboniylar tashqi siyosati ko'pincha ikki yo'nalishda — harbiy-siyosiy raqobat va tinch diplomatik aloqalar nuqtai nazaridan o'rganilgan. Biroq so'nggi tadqiqotlar bu ikki yo'nalishning bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda, murakkab geosiyosiy sharoitda shakllanganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Abdullaxon II davrida (1556–1598 yillar) tashqi siyosat yanada faollashib, Safaviylarga qarshi muvaffaqiyatli yurishlar amalga oshirildi, ayni paytda Usmonli

imperiyasi va Hindistondagi Boburiylar davlati bilan diplomatik aloqalar mustahkamlandi[3.12].

Mazkur maqolada aynan shu murakkab tashqi siyosiy jarayonlar – Shayboniylarning asosiy geosiyosiy raqiblari (Safaviylar) bilan munosabatlari, strategik ittifoqchilari (Usmonli imperiyasi, Qozoq xonligi) bilan hamkorligi, hamda uzoq davlatlar (Xitoy, Rossiya) bilan olib borilgan diplomatik va savdo aloqalari tahlil qilinadi. Maqola davomida tashqi siyosatning ichki barqarorlikka ta'siri va aksincha, ichki nizolarning xalqaro mavqega qanday ta'sir etgani masalalari ham yoritiladi.

Rossiya va Sharq xalqlari xususan, O'rta Osiyo bilan aloqalari juda qadimga borib taqaladi va u IX asr hujjatlarida qayd etilgan. Ilk o'rta asrlar davriga kelib bu aloqalar bilvosita amalga oshiriladigan bo'ldi. Bunda ikki oraliqdagi ko'chmanchi xalqlar vositachilik qilgan[3.5].

Xalqaro savdoda yuzaga kelgan vaziyat taqozosi bilan uyushmalar tuzildi. Ular o'rtasida doimo raqobat bo'lib turgan. XVI asrdan ushbu kurashda yangi omil, fan va texnika rivoji paydo bo'ldi. Moskva davlati Ivan IV hukmronligi davrida xalqaro va savdo yo'llariga kirib borish uchun faol kurash olib bordi. Buning ustiga u g'arbda Boltiqbo'yi uchun va Sharqda Kaspiy dengizi va Kavkazorti uchun barovar harakat qildi. Ma'lumki, Livoniya urushidagi dastlabki g'alabadan so'ng Rossiya g'arb koalitsiyasi bilan urushda qiyin ahvolga tushib qoldi. Bu esa Rossiyani ittifoqchilar qidirishga va bir qator davlatlar bilan diplomatik muzokaralar olib borishga majbur etdi. Rossiya davlatining Qozon va Astraxon xonliklarini bosib olishi, Qabardin yerlarining qoshib olinishi Rossiyaga Kaspiy dengizi va Kavkazortiga chiqadigan yollarni ochib berdi. O'rta Osiyo xonliklari va Eron bilan bevosita aloqa qilish imkonini yaratildi. Bu Astraxan va Kavkazorti orqali otuvchi sharq savdosida Rossiyaga vositachilarsiz savdo qilish imkonini berdi. Natijada ushbu mintaqalar bilan tovar ayriboshlash kuchayib ketdi. XVI asrda O'rta Osiyodan Moskva davlatiga otgan karvon yo'llari haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar yo'q[3.8].

O'rta Osiyoning qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalari muhim rol o'ynaydi. O'rta Osiyoning xalqaro savdo yo'li XV asr O'rta Osiyoning siyosiy inqirozi va tarqoqligi bilan karakterlanadi. Bu esa tashqi savdoning keskin qisqarib ketishiga sabab bo'ldi. Masalan, shu sababli O'rta Osiyo va Xitoy savdo va diplomatik aloqalari to'xtab qoldi. Lekin bunday siyosiy vaziyat O'rta Osiyoning qo'shni davlatlar bilan an'anaviy savdo aloqalariga butunlay chek qo'ya olmadi. Buxoro, Xiva va Balx savdo karvonlari Hindiston, Eron, Qozog'iston, Nog'ay cho'llari, Sibir va Qoshg'arga chiqib turgan. Shuningdek, yuqoridagi davlatlardan ham O'rta

Osiyoga savdo karvonlari kelib turgan.lidagi ahamiyati uning siyosiy ahvoli va ishlab chiqarish darajasiga bog'liq bo'lgan[3.5].

Ma'lumki, XV asr oxiri-XVI asr boshlari Buyuk geografik kashfiyotlar davri bolib, G'arbiy Yevropaning qator davlatlarida: Ispaniya, Portugaliya, Fransiya va ayniqsa, Angliyada feodalizm tizimining yemirilish jarayonini kuchaytirdi va kapitalistik munosabatlar paydo bo'lishiga olib keldi. XV asr oxirida g'arbiy Yevropadan Hindistonga boradigan dengiz yo'lining ochilishi natijasida xalqaro savdo O'rta Yer dengizidan Atlantika okeaniga ko'chdi. Shu maqsadda Yevropa savdogarlari va sanoatchilari O'rta Osiyoda, Xitoyda va Hindistonda xomashyo manbalari va yangi bozorlar ochishga intildilar. Rossiya esa Volga daryosi bo'ylab O'rta Osiyo orqali Hindiston va Eronga boradigan savdo yo'llarini izlay boshladi. Bu davrga kelib tashkil topgan turli savdo kompaniyalari (masalan, Angliyada «Avantyrurist- savdogarlar kompaniyasi») o'zlari uchun yangi mamlakat va bozorlar ochishga intildilar[3.11] .

1550-57 yillarda Movaraunnahrdagi siyosiy vaziyat o'sha davr muarrixlari asarlarida aks etgan. Masalan, 1558 - yil oxirida Buxoroda bo'lgan Moskva savdo kompaniyasi vakili Antonio Jenkinson Buxorodagi vaziyatni quyidagicha tasvirlaydi: —Buxoroda xon ko'pi bilan ikki yoki uch yil hukmronlik qilishi mumkin. Shu davr ichida xonni o'ldirishadi yoki haydab yuboradi. Bularning hammasi mamlakat va savdo rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Bu yillarda markaziy hokimiyatning kuchsizligi va ayrim hokimlar o'rtasidagi o'zaro kurashlar mamlakat iqtisodiyotining inqiroziga olib keldi[3.20].

Abdullaxon boshqaruvining so'ngi yillarida tashqi siyosatda bir qator muaffaqiyatsizliklar bo'ldi. Shimolda uning sobiq itifoqchisi - Tavakkalxon Toshkent va uning atrofidagi hududlarni egalladi. Samarqandga ham xavf sola boshladi. Janubda Eron shoxi Abbos I Xurosondan Abdullaxon qo'shinlarini siqib chiqardi. Abdullaxonning 1598-yil fevraldagi olimi mamalakatda siyosiy inqirozni keltirib chiqardi. Buxoro xonligining tashqi siyosatida o'zgarishlar bo'lib, Xorazm mustaqilligini qayta tiklashga urindi. [3.20]

Abdullaxon davrida Buxoro xonligining Hindiston, Xitoy, Turkiya, Rossiya bilan savdo va diplomatik munosabatlari rivojlangan. 1572-1578-yillari Hindistonda Buxoro xonining elchilari, Buxoroda esa Hindiston podshohi Akbarning elchilari bo'lgan. Abdullaxon II elchilari 1583-yili Moskvadan o'q-dori, ov qushlari, mato olib kelganlar. Bunday elchilik 1589,1595-yillarda ham takrorlangan. [4.27]

Buxoro- Rossiya munosabatlari XVI asrdan jonlana boshlandi. Shu davrda podsho Ivan Grozniy (1533-1584) mavqeyi kuchaya boshladi. Buxoro elchilari 26 marta Moskvaga tashrif buyurgan bo'lsalar, rus elchilari esa 9 marta Buxoro va

Xivaga kelganlar. Asosiy koʻzlangan maqsad albatta savdo iqtisodiy aloqalar edi. Keyinchalik esa Rossiya oʻzining siyosatini oʻtkaza boshladi. Abdullaxon II tomonidan 1557-1558 yillarda Moskvaga elchilar yuborilgan. Bu elchilikdan koʻzlangan maqsad oʻz xonlari nomidan savdogarlarning Volga boʻylab erkin oʻtishlariga ijozat soʻraydilar. Keyingi elchilik aloqalari 1558- yil 23- dekabrda Jenkinson Rossiya podshohi Ivan IV ning ishonch yorligʻi bilan Buxoroga keladi. Bu elchilik savdo munosabatlariga qaratilgan edi. Shuni aytishimiz lozimki, xatto podsho Ivan IV ga yaqin boʻlgan akauka Stroganovlar 1574- yili Buxoroga Zaxoriy Bagdanovga hamroh boʻlib kelgan. Shayboniylar davrida Buxoro xonligining tashqi siyosati oʻz qarashlari, pozitsiyasi bilan katta oʻringa ega. Xulosa qilib aytganda, Shayboniylar tashqi siyosatda neytral boʻlganlar. Eron bilan Rossiya taqqoslaganda koʻproq Rossiya bilan aloqalar kuchli olib borilgan. Bunda Moskva-Oʻrta Osiyo diplomatiyasi vujudga kelgan. Hindiston va Usmonlilar bilan aloqalar ham oʻz oʻrni va rolga ega boʻlgan. Garchi Shayboniylar sulolasi koʻp yashamagan boʻlsada tashqi siyosatda oʻz oʻrniga ega boʻlgan [1.90].

Jenkinson Ivan IV ning elchisi sifatida, Abdullaxon davrida esa 1583-yilda qimmatbaho sovgʻa-salomlar bilan elchlar kelishan. Bu sovgʻalar ichida oʻq-dori, ov qushlari va matolar keltirilgan. Abdullaxonning elchisi Muhammad Ali 1585-yili 11-noyabrda oʻzining 18 kishidan iborat hamrohi bilan Astraxanda kutib olinadi va 50 nafar harbiylar kuzatuv ostida Moskvaga yetib keladi. Muhammad Ali oʻzi bilan birga turli rangdagi 2000 zandoni(mato) 200 ipak gazlama, 100 ta yaltiroq va mahin mato va boshqa maxsulotlar keltirgan. Abdullaxon II ikkinchi bor Muhammad Alini 1589 -yilda Rossiyaga elchi qilib yubordi. Bu safar uning mollarini Astraxan yonida zoʻrovonlik yoʻli bilan tortib olishdi. Savdogarlar Rossiya hukumdori Feodor Ivanovichga maktub yoʻllaydilar va chora koʻrishlarini soʻraydi. Feodor savdogarlarni shikoyatini inobatga olib chora koʻradi. Shu davrda Buxorodan Rossiyaga 5 marotaba elchi brogan[2.80].

Buxoro-Turkiya tashqi siyosatlari ham ancha yaxshi kechgan. Albatta bunda manfaatlar toʻqnashuvi bor edi. Shayboniixon bilan Usmonli turk sultoni Boyazid II(1481-1512) oʻrtasida Eron Safaviylariga qarshi kurash toʻgʻrisida shartnoma tuzilgan. Usmonli turk davlati bilan aloqalar Shayboniixonidan keyin ham davom etgan. Bir qator hujjatlar tasdiqlashicha, Navroʻz Ahmadxon va keyinchalik, Abdullaxon II ning oʻgʻli Abdulmoʻminning turk sultoni Murod III (1574-1579) ga yozgan xati nusxasini keltiradi. Xatda 1589-yilda Mashhad olingandan soʻng, yuzaga kelgan vaziyat nuqtai nazaridan kelib chiqib, Eronga qarshi hamkorlikda yurish qilish lozimligi haqida soʻz boradi[1.90].

Abdullaxon II 1571- yilda Usmoniy hukumdor Salim II ga maktub yoʻllagan. U maktubida Safaviylarga qarshi birgalkda kurashish kerakligini aytgan. Abdullaxon

II o'z maktubida Salimni otasi Sulaymon I davrida ikki mamlakat o'rtasida safaviylarga qarshi kurash esga olinadi. Sulton Salim II javob maktubida Qibris masalasi bilan mashg'ulligini bildiradi. Yana bir marotaba 1588-yilda Abdullaxon II Hoji Bahodirqul va Boqi Hojilarni yuboradi, ammo tayinli javob ololmaydi. Shayboniylar davlati va Qoshg'ar o'rtasida elchilar almashunuvi bolib turgan. Jumladan Abdullaxon II davrida Buxorodan Qoshg'arga Do'st Mirzo Chuhra og'asi boshchiligidagi elchilar borgan[2.81]

Buxoro-Eron munosabatlariga to'xtaladigan bo'lsak avvaliga to'g'ri yaxshi bo'lmagan bo'lishi mumkin lekin, keyinchalik iliqlikni ko'ramiz. XVI- asr boshlarida Safaviylar va Shayboniylar o'rtasida tinchlik sulhini tuzishga harakat qilgan, elchi vazifasini bajargan shaxslar nomlari manbalarda saqlanib qolgan(Shayxzoda Zohidjoniy, Xalil aka So'fiy, Qozi Zayniddin Nurulloh, Kamoliddin Husayniy Abivardi va Xo'ja Abrahim Naqshbandiy). Lekin ularning urinishlari ko'p hollarda natijasiz tugagan. Bilamizki, Buxoro-Eron munosabatlariga ziddiyatli kechgan. Shunday bo'lsada 1597- yilning oxirida Abdullaxon II ning elchisi Shoh Abbos(1587-1629) saroyida qabul qilingan. Bu elchilik yaxshi bo'lmagan Shoh elchiga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lmagan. Shuni ta'kidlash joizki, Buxoro xonligi va Eron Safaviylari davlati o'rtasidagi munosabatlar XVI asr mobaynida ziddiyatli kechdi[1.90].

Ikki mintaq xalqlarining XVI-XVII asrlardagi aloqalarida islom dinining ham birlashtiruvchi roli borligini inkor qilib bo'lmaydi. O'sha davrda Hindiston musulmonlari Turkistonni eng avvalo diniy ilmlar markazi sifatida hurmat qilganlar, ayniqsa, Buxoro madrasalarining dovrug'i Hind musulmonlari orasida keng yoyilgan. Shu sababdan bir qancha hind musulmonlari Buxoroda tahsil olganliklari ma'lum. Yuqorida bayon qilingan fikrlar va bir qator manba va adabiyotlardan olingan ma'lumotlar XVI-XVII asrlarda boburiylar davridagi Hindiston va Turkiston o'rtasida diplomatik, harbiy, savdo va madaniy aloqalar ancha faol olib borilganligidan darak beradi[5.108].

XVI asr oxirlarida Movarounnahr, Hindiston va Eronda kuchli feodal davlatlar tashkil topadi. Hindistonda boburiylar sulolasining eng zabardasti buyuk Akbar saltanat egasi bo'lganda (1556-1605 yillar), Movarounnahrda shayboniylar sulolasining so'nggi tadbirkor vakili Abdulla II hokimiyatni o'z qo'liga oldi (1556-1598 yillar). O'sha davrda ikkala davlat o'rtasida bir qator diplomatik almashinuvlar bo'lib o'tdi. Masalan, Abdullaxon 1572-73; 1577-78 va 1586 yillarda Hindistonga elchilar yubordi. Abdullaxonning elchisi Oltamish 1572 yili Dehliga boradi[5.109].

Elchi Abdullaxonning har ikkala mamlakat o'rtasida davom etib kelayotgan do'stlik aloqalarini kuchaytirish haqidagi maktubini topshiradi. Akbar o'zbek

elchisini, Gujarot yurishi muvaffaqiyatli tugagach, qabul qiladi. Akbar elchi orqali Abdullaxon nomiga yuborgan maktubida do'stlik munosabatlarini o'rnatishga rozi ekanligini bildiradi. O'zbek elchisi Hindistondan o'z yurtiga qaytish arafasida Badaxshonda hokimiyat uchun o'zaro kurash boshlanganligi ma'lum bo'ladi. Imperator Akbar bu kurashda o'zbek xonining qo'li borligini gumon qiladi. 1577 yilda Abdullaxonning ikkinchi elchisi Mir Abdurahmon Xo'ja Sadr Hindistonga keladi. Elchi Turkiston bilan Hindiston o'rtasida Eronni bo'lib olishni taklif qiladi. Endi Akbar o'z navbatida Mirza Fulod boshchiligidagi o'z elchilarini Abdullaxon saroyiga yuboradi. Bundan maqsad, hind elchisi Eronning musulmon davlati ekanligini eslatib, Akbarning bu davlat yerlarini bo'lib olishga rozi emasligini anglatishi kerak edi[5.109].

Elchi zimmasiga ikkinchi vazifa ham yuklatilgan edi. Abdullaxon davlatining tobora kuchayib borishi Badaxshonga xavf tug'dirayotgan edi. Hind tomoni bu xavfning oldini olish uchun qurolli kuch ishlatishdan ko'ra diplomatik yo'l bilan kelishishga urinadi. Shuning uchun Mirza Fulod o'zbek xonining Badaxshonga nisbatan munosabatini aniqlash vazifasini ham bajarishi kerak edi. Haqiqatda Akbarning taxmini to'g'ri edi. Abdullaxon Balx va Hirotni egallagach, Badaxshon va Kobulni ham bosib olishni mo'ljallagan edi. 1583–1584 yillarda o'zbek qo'shinlari Badaxshonga hujum qilib, uni bosib oldilar. Badaxshon hokimi Mirza Sulaymon va uning nabirasi Shohruh Akbardan yordam so'radi. Kobul hokimi Mirza Hakim ham o'z yerlariga tug'ilgan xavfning oldini olish uchun Akbarga yordam so'rab murojaat qildi. Shu sababdan Akbar katta qurolli kuch bilan 1585 yilda Panjobga keldi va shu yili Kobulni o'z imperiyasiga qo'shib olib, Abdullaxonning rejalarini chippakka chiqardi. Akbar tomonidan amalga oshirilgan ishlar Abdullaxonni xavfsiratib qo'ydi va uning Eronga nisbatan bosqinchilik siyosatini davom ettirishda bu masala yuzasidan hind imperatorining roziligini olib, u bilan ittifoq bo'lishga majbur etdi[5.109].

Shu yo'sinda diplomatik aloqalar uzluksiz davom etaverranligi bizga turli manbalardan ma'lum. 1585-yilda Abdullaxon tomonidan Hindistonga Mirquraysh rahbarligida elchilar yuborilgan edi. "Abdullanoma" asarining muallifi Hofiz Tanishning ta'kidlashicha, Mirquraysh elchiligi Hindistonga o'zbeklar tomonidan Badaxshonning (1584) bosib olinishi sabablarini tushuntirish uchun yuborilgan, chunki bu hodisa boburiylar imperiyasi tomonidan Hindistonga nisbatan dushmanlik ishi deb qaralishi mumkin edi. [5.110]

Xullosa qilib aytganda, Shayboniylar davlati tashqi siyosati murakkab geosiyosiy vaziyatda shakllangan. Asosiy e'tibor Safaviylar bilan raqobat, Usmonlilar bilan ittifoq va Xitoy, Rossiya bilan iqtisodiy-diplomatik aloqalarga qaratilgan edi. Biroq 1598-yilda Abdullaxon II vafotidan so'ng markaziy hokimiyat

zaiflashib, davlatda boshboshdoqlik yuzaga keldi. Bu holatdan foydalangan Eron shohi Abbos Xurosonni egalladi, qozoq sultonlari Toshkentni zabt etdi va Xorazm mustaqillikka erishdi. Natijada Shayboniylar sulolasi o'rnini Ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasi egalladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://jica.innovascience.uz/index.php/jica/article/download/31/29/37>
2. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/download/592/551/1106>
3. "Antonio Jekinsonning estaliklari tarixiy manba sifatida" B.M.I. Nazarov.S. Samarqand. 2013.
4. "Vatan Tarixi" ikkinchi kitob. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Xoshimov S. Ubaydullayev O'.. - Toshkent: Sharq, 2016.
5. Хайруллаев М. Ўзбек дипломатияси тарихидан. (Жаҳон иқдисодиёти ва дипломатия университети) – Тошкент, 2003.